

**INGLIZ AXBOROT MATNLARIDA ZAMON
TRANSFORMATSIYASI**

Nigora Rejabova

Annotatsiya: Zamon transformatsiyasi bugungi global axborot makonida tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ingliz tilidagi yangilik matnlarida zamon shakllari nafaqat voqealarning vaqtini ifodalash, balki ularni o'quvchi ongida real, dolzarb yoki tarixiy tarzda tasavvur ettirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ushbu maqolada ingliz axborot matnlarida zamon transformatsiyasining asosiy turlari, ularning kommunikativ va pragmatik vazifalari, shuningdek, o'quvchi idrokiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida 500 ta ingliz yangilik matni tanlab o'rganildi, ularning asosida zamon o'zgarishining uch asosiy tendensiyasi, relevans (dolzarblik), dramaturgiya (voqeani jonlantirish) va emotivlik (sub'yektivlik) tamoyillari aniqlangan. Maqolada zamon kategoriyasining funksional-semantik imkoniyatlari story-telling (voqeani hikoya qilish) usulida yoritilib, matn ichidagi vaqt o'zgarishlari o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatishi, axborot oqimini qanday tashkil etishi misollar orqali tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: zamon transformatsiyasi, axborot matni, hikoya qilish, zamon shakllari, pragmatika, kommunikativ effekt, ingliz tili.

Kirish

Ingliz tilidagi axborot matnlarida har bir fe'l shakli orqasida vaqtning o'ziga xos dramatik tasviri yashiringan. Bugun ingliz ommaviy axborot vositalari nafaqat voqeani xabar qiladi, balki uni tasvirlaydi, his ettiradi, shakllantiradi. Shuning uchun zamon transformatsiyasini o'rganish bu faqat grammatik masala emas, balki axborot uslubining psixolingvistik mexanizmini ochishdir. Ingliz yangiliklarida zamon o'zgarishlari o'quvchi e'tiborini boshqarish, voqeani "hozir" kabi his qildirish, yoki uni "kechagi" tarzda masofalash orqali axborotning emotsional

kuchini belgilaydi. Shu jihatdan, zamon bu xabarni tashkil etuvchi ko‘rinmas kompozitor, ya’ni matnning vaqt bo‘yicha ritmini boshqaruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot materiali sifatida BBC, CNN kabi nufuzli axborot manbalaridan olingan 500 ta yangilik matni tanlab olindi. Tahlilda deskriptiv, chog‘ishtirma, statistik va korpus lingvistika usullaridan foydalanildi. Har bir matnning sarlavhasi, kirish jumlası (lead) va asosiy qismi tahlil qilinib, undagi fe‘l zamon shakllari Reichenbach (1947) modeli asosida belgilandi: Reference Time (R), Event Time (E), Speech Time (S). Shuningdek, har bir zamonning funksional yuklamasi (masalan, “Simple Present”ning dolzarblikni yaratishdagi roli yoki “Past Perfect”ning retrospektivlik ifodasidagi o‘rni) aniqlanib, ularning matn ichidagi o‘zaro transformatsiyasi kuzatildi. O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagilar aniqlandi: Hikoya qilishda zamonning dramatik roli, bunda asosan Yangilik matnlari o‘z mohiyatiga ko‘ra hikoya shaklida quriladi. Masalan, quyidagi misolni olaylik:

“Rescuers are searching for survivors after a deadly earthquake struck southern Turkey.” Bu yerda “are searching” hozirgi davomiy zamon, ammo voqea allaqachon sodir bo‘lgan. Jurnalist bu shaklnı tanlash orqali o‘quvchini voqea ichiga olib kiradi, go‘yoki qutqaruvchilar hozir harakatda. Bu “story-telling journalism”ning asosiy mexanizmidir: zamon o‘quvchini real vaqtga tortadi. Ikkinchisi zamon o‘zgarishlari orqali axborot oqimi boshqaruvi. Ko‘plab tahlil qilingan matnlarda sarlavha Present Simpleda, lekin asosiy matn Past Simple yoki Present Perfectda keltiriladi. Masalan: “Government approves new education policy.” (Sarlavha)

“The government approved the policy after weeks of debate.” (Matn)

Bu shaklda o‘zgarish axborot oqimini tartibga soladi: sarlavha- yangilikni “hozir” deb taqdim etadi, matn esa uni vaqt oralig‘ida joylashtiradi. Bu zamon transformatsiyasi o‘quvchining axborotni yangilik sifatida qabul qilishini kuchaytiradi. Uchinchisi esa, zamon tanlashning pragmatik sabablaridir. Zamon transformatsiyasi ko‘pincha jurnalistning maqsadi bilan bog‘liq. Present tense - real

vaqt hissini beradi, dolzarblikni kuchaytiradi. Past tense - voqeani fakt sifatida masofadan tasvirlaydi. Perfect forms - sabab-oqibatni va retrospektiv bahoni bildiradi. Masalan, “has confirmed” - bu faqat grammatik emas, balki ishonchlilik belgisi hamdir. Past tense - voqeani fakt sifatida masofadan tasvirlaydi. Perfect forms - sabab-oqibatni va retrospektiv bahoni bildiradi. Masalan, “has confirmed” - bu faqat grammatik emas, balki ishonchlilik belgisi hamdir. Bu natija ingliz yangiliklarida o'tgan zamonning ustuvorligini, lekin dolzarblik hissi uchun hozirgi shakllarning ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ingliz axborot matnlari “real time reporting” (ya'ni hozirgi zamon bilan yangilik bayon etish) konsepsiyasiga tayanadi. Bu madaniyatda “time is information” degan paradigma mavjud. Shu sabab, “is reported”, “has emerged” kabi hozirgi shakllar voqeaning yangi, jonli ekanini bildiradi. Shu bilan birga, jurnalist zamonni almashtirib, o'quvchining hissiy javobini boshqaradi: o'tgan zamon - sovuqlik, hozirgi zamon - ishtirok, kelasi zamon - kutish hissini beradi. Ingliz tilidagi zamon tizimi, avvalo, morfologik jihatdan nisbatan cheklangan bo'lib, asosan fe'ning infleksion qo'shimchalari va yordamchi fe'llar orqali ifodalanadi. Ingliz tili uch asosiy zamonni -hozirgi, o'tgan va kelajakni aniq ko'rsatadi, biroq mazkur zamonlarning qo'llanilishi ko'pincha aspektual ma'nolar bilan chambarchas bog'lanadi. Ingliz tili grammatik tizimida o'tgan zamon odatda -ed qo'shimchasi orqali ifodalanadi (*worked, played* – ishladi, o'ynadi), biroq fe'llarning ko'plab notekis paradigmalari (*went – bordi, wrote – yozdi, saw – ko'rdi*) ushbu jarayonni murakkablashtiradi. Hozirgi zamonda shaxs va sonning o'zgarishi cheklangan darajada ifodalanib, uchinchi shaxs birlikda -s qo'shimchasi qo'shiladi (*writes – yozadi, reads – o'qiydi*). Kelajak zamon esa asosan yordamchi fe'l *will* orqali hosil qilinadi (*will go – boradi, will see – ko'radi*). Ingliz tilidagi zamon tizimi o'zining murakkabligi va izchil strukturalanganligi bilan boshqa ko'plab tillardan farq qiladi. Ingliz tili umumiy qabul qilingan tasnifga ko'ra, ingliz tilida 12 ta zamon shakli mavjud: *Simple Present, Present Continuous, Present Perfect, Present Perfect Continuous, Simple Past, Past Continuous, Past Perfect, Past Perfect Continuous, Simple Future, Future Continuous, Future Perfect, Future Perfect Continuous*. Har bir zamon shakli turli kommunikativ

vazifalarni bajaradi va matnning xususiyatiga qarab tanlanadi.

Axborot matnlarida zamonlarning qo'llanishi bevosita xabar berishning aniqligi, voqealar ketma-ketligi va matnning ishonchliligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Misol uchun, *Simple Past* (o'tgan zamon) ko'pincha faktlarni bayon etishda ishlatiladi:

- *The president visited New York yesterday.* – “Prezident kecha Nyu-Yorkka tashrif buyurdi.”

Shu bilan birga, *Present Perfect* (tugallangan zamon) ko'pincha voqealarning hozirgi zamon bilan bog'liqligini ko'rsatishda muhim rol o'ynaydi:

- *The government has announced new reforms.* – “Hukumat yangi islohotlarni e'lon qildi.”

Bunday o'tishlar axborot matnida zamon transformatsiyasini yuzaga keltiradi, bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi zamon transformatsiyasi nafaqat grammatik birlik, balki kommunikativ strategiya sifatida ham muhim o'rin tutadi.

Axborot matnlarida zamonlarning qo'llanilishi nafaqat voqeaning vaqtini, balki uning xabar beruvchiga bo'lgan munosabatini ham belgilaydi. Yangiliklar uslubida ko'pincha sarlavhalarda oddiy hozirgi zamon (*present simple*) keng qo'llanadi. Bu, bir tomondan, voqeani o'quvchiga yaqinlashtirish va uni bevosita sodir bo'layotgandek taqdim etish vazifasini bajaradi. Masalan, ingliz tilidagi yangilik sarlavhalarida “*Government approves new policy*” (Hukumat yangi siyosatni ma'qulladi) yoki “*Scientists discover new planet*” (Olimlar yangi sayyorani kashf etishdi) kabi gaplar ishlatiladi. Bunda voqea o'tib ketgan bo'lsa-da, hozirgi zamon shakli orqali u hozirgi voqelikning bir qismi sifatida talqin qilinadi. O'tgan zamon shakli esa asosan batafsil axborot berishda qo'llaniladi. Matnning asosiy qismlarida “*The president met with foreign leaders yesterday*” (Prezident kecha xorijiy yetakchilar bilan uchrashdi) kabi gaplar o'tmishda sodir bo'lgan hodisani aniq vaqtga bog'lab ko'rsatadi. Shu tarzda axborot matnlarida sarlavha va asosiy qism o'rtasida zamon shakllarining almashinuvi kuzatiladi. Bu ingliz tilida zamon transformatsiyasining eng muhim ko'rinishlaridan biridir.

Perfect (tugallangan) shakllar ingliz tilida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Hozirgi tugallangan zamon (*have/has + past participle*) voqeaning tugallanganligini va uning hozirgi paytga ta'sirini bildiradi. Masalan, "*The committee has reached a decision*" (Qo'mita qarorga keldi) jumlasida qarorning qabul qilingani o'tgan zamonga oid, biroq natijasi hozirda ham dolzarbdir. Bu konstruktsiya o'zbek tilida ko'pincha *-gan* affiksi yoki *bo'lmoq* yordamchi fe'li orqali ifodalanadi, biroq ularning qo'llanish doirasi va semantik yuklamasi ingliz tilidagidan farq qiladi.

Progressive (davomiy) shakllar (*be + -ing*) esa davomiylikni ifodalashda qo'llanadi. Axborot matnlarida bunday shakllar kamroq uchraydi, biroq jarayonning ayni paytda sodir bo'layotganligini urg'ulash zarur bo'lganda qo'llaniladi: "*Rescue teams are working to save survivors*" (Qutqaruv jamoalari omon qolganlarni qutqarish uchun ishlashmoqda). Bu tarzda jumlar xabarni dramatik va dinamik tusda yetkazishga xizmat qiladi. Ingliz tilidagi yangilik matnlari tahlili shuni ko'rsatdiki, bu tilda zamon transformatsiyasi (*tense shift*) o'zbek tilidagiga nisbatan yanada qat'iy strukturaviy me'yor asosida quriladi. Bu qat'iylik, avvalo, ingliz jurnalistik matnlarining janr xususiyatlaridan "*news writing conventions*"dan kelib chiqadi:

① Pattern 1: Past Simple → Present Simple → Past Simple → Present Simple

② Pattern 2: Past Simple → Present Perfect → Past Simple → Present Perfect

③ Pattern 3: Present Perfect → Past Simple → Present Simple → Past Simple

Bu uch andaza (pattern) ichida birinchi (Past → Present → Past → Present) eng ko'p uchragan, jami 238 ta matnda (47,6%) kuzatildi.

Ikkinchi pattern esa 153 ta matnda (30,6%), uchinchi pattern esa 109 ta matnda (21,8%) uchradi.

Shunday qilib, ingliz yangilik diskursida Past Simple (o'tgan zamon) grammatikasi ustunlik qiladi - u barcha 500 ta matndan 55% holatda markaziy fe'l zamoni sifatida qo'llangan. Unga nisbatan Present Perfect (hozirgacha davom etgan

zamon) 20% hollarda, Present Simple (hozirgi zamon) esa 15% hollarda kuzatildi.

Qolgan 10%ni progressive shakllar (Present Continuous, Past Continuous) hamda future-oriented shakllar tashkil etdi. Ingliz tilida yangilik sarlavhalari (headline) ko'pincha Present Simple (hozirgi zamon)ida ifodalanadi. Masalan:

"Prime Minister visits flood-hit region."

"US launches new diplomatic talks with China."

Bu formal jihatdan hozirgi zamon shaklida bo'lsa-da, semantik jihatdan o'tgan zamon ma'nosini beradi, chunki bu voqealar allaqachon sodir bo'lgan, biroq "news immediacy" (yangilikni hozir sodir bo'layotgandek ko'rsatish) tamoyiliga bo'ysunadi. Shu bois headline-lardagi zamon tanlovi discourse strategy sifatida talqin etiladi. Matnning asosiy qismida esa Past Simple (o'tgan zamon)ning qo'llanishi ustunlik qiladi. Masalan:

"The Prime Minister visited the area on Tuesday after severe flooding hit the region last week."

"Officials confirmed that over 200 homes were damaged."

Bu shakl o'quvchiga "voqealar yakunlangan, faktlar ishonchli" degan signal beradi. Ingliz yangilik matnlarining tuzilishi, asosan, chronological-retrospective modelga asoslanadi, ya'ni sarlavhada "bugun sodir bo'layotgan" hodisa sifatida boshlanib, keyingi qismda "voqeaning tafsiloti"ni o'tgan zamonda bayon qiladi. Zamon transformatsiyasi ingliz axborot matnlarida nafaqat voqea vaqtini bildiradi, balki matnning ritmini belgilaydi.

Xulosa, Ingliz axborot matnlarida zamon transformatsiyasi - bu shunchaki grammatik hodisa emas, balki kommunikativ strategiya. Jurnalist har bir fe'l shaklini tanlash orqali o'quvchining diqqatini, hissini va xulosasini boshqaradi. Zamon shakllari matnning "hikoya qiluvchi tovushi"ni belgilaydi: o'tgan zamon - voqea ortidan kuzatuvchi ovoz, hozirgi zamon - ishtirok etuvchi ovoz, kelasi zamon - prognoz beruvchi ovozdir. Demak, ingliz axborot matnlarida zamon transformatsiyasi real vaqtning til orqali yaratilishi bo'lib, u jurnalistik nutqni badiiy va ta'sirchan qiladi. Kelgusida bu masalani o'zbek axborot matnlari bilan chog'ishtirish orqali milliy stilistik farqlarni aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reichenbach, H. (1947). Elements of Symbolic Logic. Macmillan.
2. Comrie, B. (1985). Tense. Cambridge University Press.
3. Bell, A. (1991). The Language of News Media. Blackwell.
4. Fowler, R. (1991). Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. Routledge.
5. Fairclough, N. (1995). Media Discourse. Edward Arnold.
6. Allan, S. (2010). News Culture. Open University Press.
7. Van Dijk, T. A. (1988). News as Discourse. Erlbaum.
8. Bybee, J., Perkins, R., & Pagliuca, W. (1994). The Evolution of Grammar. University of Chicago Press.
9. Lyons, J. (1995). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge University Press.
10. Fleischman, S. (1990). Tense and Narrativity: From Medieval Performance to Modern Fiction. Routledge.